

## KONSTITUTSIYA - ADOLATNING BOSH MEZONI, TARAQQIYOTIMIZNING HUQUQIY KAFOLATI

**Yuldashev Elmurodjon Baxodirjon o'g'li**

*Berdaq nomidagi Qoraqaploq davlat universiteti Yuridika fakulteti 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mustaqillik qomusimiz sari o'nta huquqiy qadam, uning yaratilishiga sabab bo'lgan omillar va yaratilish tarixi, Yaponianing eng barqaror zamonaviy Konstitutsiyasi va asosiy Qonunimiz o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlar, Konstitutsiyamizning jamiyatimiz hayotida tutgan o'rni haqida so'z borada.

**Kalit so'zlar:** asosiy qomusimiz, huquqiy prezident, jamoatchilik ekspertizasi, BMT, Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik kengashi, konseptual qadriyatlar, okkupatsiya kuchlari, promulgatsiya, konsepsiya

Asosiy Qonunimiz yaratilishining murakkab va muhim, ayni chog'da sharaflı solnomasiga nazar solar ekanmiz, hech shubhasiz, O'zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning mustaqillik sari uzoq yo'ldagi izlanishlari natijasi ekaniga komil ishonch hosil qilamiz. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilishi tarixi haqida so'z yuritishdan oldin "Konstitutsiya nima?" degan savolga javob berish maqsadga muvofiqdir.

Konstitutsiya (lotincha "Constitution" – tuzilish, tuzuk) – davlatning Asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini belgilab beradi.

"Konstitutsiya" atamasi Qadimgi Rimdayoq ma'lum bo'lgan (imperator Konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Amir Temur "Tuzuklar"i Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo'lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari taqdiriga kuchli ta'sir o'tkazgan.

Avvalambor, konstitutsiyaviy "bino"ni qurishda uch ming yillik milliy davlatchilik tajribasiga tayanilgan. Bugungi O'zbekiston qadimgi Xorazm va So'g'diyona, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar, o'zbek xonliklari, ma'rifatparvar ajdodlarimiz, xalqimizning tarixiy an'analari va uning mustaqil davlat haqidagi ko'p asrli orzusini mujassam etgan.

Qolaversa, manfaatlarimiz va intilishlarimizdan kelib chiqqan holda, Asosiy Qonunimiz Sharq va G'arb, Janub va Shimolning 97 ta mamlakati to'plagan ilg'or konstitutsiyaviy tajribani hisobga olib yaratilgan.

Shu o'rinda Suveren O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini tayyorlash, muhokama etish, qabul qilish va uning amal qilishi yo'lidagi 10 ta huquqiy qadamni bu boradagi eng muhim tarixiy voqealar sifatida sanab o'tish lozim. ZOTAN, Konstitutsiyani yaratish tarixi – bu mustaqillik uchun kurashning uzviy tarkibiy qismidir.

Konstitutsiyani yaratish yo'lidagi birinchi huquqiy qadam – o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishidir.

Bu haqda gap borganda, avvalambor, 1989 yilning 21 oktabr kuni qizg'in bahs va tortishuvlardan so'ng siyosiy-ma'naviy hayotimizdag'i unutilmas hodisa amalga oshirilgani – milliy qadriyatlarimizning asosiy ustunlaridan biri bo'lgan ona tilimizga davlat tili maqomi berilgani istiqlol tarixining eng yorqin sahifalaridan birini tashkil etishini alohida ta'kidlash o'rindidir.

“O‘z ona tilini bilmagan odam o‘zining shajarasini, o‘zining ildizini bilmaydigan, kelajagi yo‘q odam, kishi tilini bilmaydigan uning dilini ham bilmaydi, deb juda to‘g‘ri aytishadi”. “Har qaysi millat, katta yo kichikligidan qat’iy nazar, o‘z ona tilini hurmat qiladi”.

Birinchi Prezidentimizning “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”, “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarlarida mustaqillik arafasida o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasida qanday qizg'in, ba’zida keskin va murosasiz bahslar bo‘lib o‘tgani alohida eslab o‘tilgani bejiz emas.

O‘shanday qaltis va murakkab vaziyatda, Islom Karimov haqli ravishda qayd etganidek: “og‘ir-vazminlik bilan ish tutib, har tomonlama o‘ylab, mulohaza qilib, barcha siyosiy va ijtimoiy guruhlarning talablarini qondiradigan, eng muhimi, xalqimiz va Vatanimiz manfaatlariga javob beradigan yagona to‘g‘ri yo‘lni topishga erishdik”.

Shunday qilib dastavval, “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunda mustahkamlangan muhim huquqiy qoidalar endilikda Asosiy Qonunimizning 4-moddasida quyidagicha muhrlab qo‘yildi:

“O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”.

Konstitutsiyani yaratish yo‘lidagi ikkinchi huquqiy qadam – Prezidentlik instituti ta’sis etilishi va yangi davlat ramzlarini tayyorlash bo‘yicha komissiya tuzilishi bilan bog‘liq.

Yurtimiz hayotidagi bu g‘oyat muhim va hayajonli voqealar 1990 yilning mart oyida bo‘lib o‘tganini eslash joiz. O‘shanda, ya’ni Mustaqilligimiz e’lon qilinishidan bir muncha vaqt oldin, o‘n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengashning birinchi sessiyasida sobiq ittifoq tarkibidagi respublikamizda Prezidentlik lavozimi joriy etildi, davlat ramzlari haqidagi masala muhokama qilinib, bu borada maxsus komissiya tuzildi. Mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini yaratish g‘oyasi ilk bor ana shu sessiyada ilgari surildi.

Konstitutsiyani yaratish yo‘lidagi uchinchi huquqiy qadam – “Mustaqillik deklaratsiyasi”ning e’lon qilinishidir.

O‘zbekiston Oliy Kengashi tomonidan 1990 yil 20 iyunda e’lon qilingan “Mustaqillik deklaratsiyasi”ning 8-bandida O‘zbekiston “o‘zining taraqqiyot yo‘lini, o‘z nomini belgilaydi va davlat belgilarini (gerb, bayroq, madhiya) o‘zi ta’sis etadi” degan qoida mustahkamlangan.

Deklaratsiyaning 12-bandida esa ushbu hujjat respublikaning “yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqish uchun asos” bo‘lishi qayd etilgan.

O‘shanda bunday mazmundagi hujjat sobiq ittifoq hududida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda qabul qilingan edi.

Konstitutsiyani yaratish yo‘lidagi to‘rtinchchi huquqiy qadam – Konstitutsiyaviy komissyaning tashkil etilishiga borib taqaladi.

Oliy Kengash qarori bilan 1990 yil 21 iyun kuni O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov raisligida davlat arboblari, deputatlar, mutaxassislardan iborat 64

nafar a'zoni o'zida jamlagan Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi va Konstitutsiya loyihasi ana shu komissiya tomonidan 2 yildan ortiq vaqt mobaynida tayyorlandi.

Birinchi Prezidentimiz Konstitutsiyaviy komissiya ish boshlashi bilan mamlakatimizning o'ziga xos jihatlarini va xususiyatini munosib ravishda aks ettiradigan, xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan, jahon tajribasini, demokratiya va eng rivojlangan mamlakatlar konstitutsiyaviy qonunchiligi erishgan yutuqlarni inobatga oladigan Asosiy Qonun loyihasini tayyorlashga bevosita rahbarlik qildi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda Birinchi Prezidentimiz buyuk davlat va jamoat arbobi, iste'dodli siyosiy yetakchi sifatida namoyon bo'ldi. Shu ma'noda, O'zbekiston Konstitutsiyasining tashabbuskori, ilhomlantiruvchisi va asosiy muallifi mamlakat Prezidenti hisoblanadi.

Konstitutsiyani yaratish yo'lidagi beshinchi huquqiy qadam – Birinchi Prezidentimizning Hindistonga 1991 yilgi tashrifi bilan chambarchas bog'liq.

Aytish kerakki, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 1991 yil 17-19 avgust kunlari "Hindiston Respublikasiga rasmiy tashrifi O'zbekiston Prezidentining xorijga qilgan birinchi mustaqil – tarixiy tashrifi edi". Yurtboshimiz Hindistonda bo'lgan bir paytda – 19 avgust kuni o'zini "Davlat favqulodda holat qo'mitasi", ya'ni GKChP deb atagan bir guruh siyosiy avanturistlarning davlat to'ntarishini sodir etishga qaratilgan murojaati e'lon qilindi.

Afsuski, O'zbekiston rahbarining safarda ekanidan foydalanib, GKChPning noqonuniy qarorlarini qo'llab-quvvatlaydigan rahbarlar yurtimizda ham topildi. Tarix buni yaxshi eslaydi.

Bu voqealarning davomi "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobining so'zboshi qismida shunday bayon etilgan:

"Prezident Islom Karimov GKChP e'lon qilinganini Agrada eshitib, 19 avgust kuni zudlik bilan Toshkentga qaytadi. Toshkent aeroportida Yurtboshimizni rasmiy kishilardan tashqari, Turkiston harbiy okrugi bosh qo'mondoni hamda Markazdan kelgan 3 nafar general kutib oladi.

Bu o'sha paytdagi mavjud rasmiy protokol qoidalariga mutlaqo zid bo'lib, tagdor siyosiy ma'noga ega edi.

Islom Karimov aeroportdan to'g'ri hukumat binosiga kelib, kechqurun hukumat a'zolari bilan uchrashdi hamda O'zbekiston SSR hududida GKChPning qonunga zid qarorlarini bekor qilish haqida ko'rsatma berdi. Shu tariqa GKChP gumashtalari O'zbekiston hukumati nomidan qabul qilgan barcha hujjatlarni bekor qildi".

O'sha beorom davrda qabul qilingan Prezident farmon va qarorlarida aks etgan muhim huquq va qoidalar keyinchalik Konstitutsiyamizning asosiy bo'lim, bob va moddalari sifatida mustahkamlandi.

Konstitutsiyani yaratish yo'lidagi oltinchi huquqiy qadam – Davlat mustaqilligining e'lon qilinishidir.

Mamlakatimiz rahbarining 1991 yil 31 avgustda, o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida so'zlagan nutqi, ayniqsa, o'sha nutqdagi: "Men shu bugundan e'tiboran 1 sentabrni respublikamizda Mustaqillik kuni, umumxalq bayrami deb e'lon qilishni taklif etaman", degan otashin so'zları Vatanimiz tarixiga oltin harflar bilan manguga yozilgandir.

Birinchi Prezidentimiz oradan 17 yil o‘tganidan so‘ng o‘zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ana shu hayajonli voqeaga: “1991 yil 31 avgust sanasida qo‘lga kiritilgan milliy mustaqillik – XX asrda xalqimiz tomonidan amalga oshirilgan buyuk ma’naviy jasorat namunasidir, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz”, deya yuksak baho berdi.

Xuddi o‘sha kuni Oliy Kengash O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida Bayonot qabul qildi. Bayonotda ta’kidlandiki, “Bundan buyon O‘zbekiston Respublikasi hududida respublika Konstitutsiyasi va qonunlari shak-shubhasiz ustun deb e’tirof etiladi”.

Shu kuni “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Undan bo‘lajak Konstitutsiyaning o‘zak qoidalarini o‘zida aks ettirgan bir qator muhim moddalar joy oldi. Jumladan, mazkur Qonunga muvofiq:

“O‘zbekiston Respublikasi to‘la davlat hokimiyatiga ega, o‘zining milliy-davlat va ma’muriy hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilaydi” (3-modda);

“O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va uning qonunlari ustundir. O‘zbekiston Respublikasi Davlat idoralarining tizimi hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratish tartibi asosida quriladi” (5-modda).

Bu Konstitutsiyaviy qonun Asosiy Qonunimiz qabul qilinguniga qadar, ya’ni 1992 yil 8 dekabrgacha biz uchun kichik Konstitutsiya vazifasini bajarib turdi.

Konstitutsiyani yaratish yo‘lidagi yettinchi huquqiy qadam – 1991 yil 29 dekabrda Prezident saylovi va Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi referendumning o‘tkazilishiga taalluqli.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi va Respublika davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi referendum 1991 yil 29 dekabrdi bo‘lib o‘tdi. Xalq davlat mustaqilligini qo‘llab ovoz berdi va Prezidentni sayladi. 1992 yil 4 yanvar kuni Oliy Kengashning ana shu saylov va referendum yakunlariga bag‘ishlangan to‘qqizinchi sessiyasi ochildi.

So‘ngra Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimini bajarishga kirishish tantanali marosimi bo‘ldi. Ushbu sessiyada O‘zbekistonning o‘sha paytda amalda bo‘lgan Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritildi. Mahalliy hokimiyat organlarini qayta tuzish to‘g‘risida qonun qabul qilindi.

Konstitutsiyani yaratish yo‘lidagi sakkizinchi huquqiy qadam – birinchi Konstitutsiya loyihasining ilk bor matbuotda umumxalq muhokamasi uchun e’lon qilinishidir.

Konstitutsiyaviy komissiya bajarilgan ishni ma’qulladi va 1992 yil 8 sentabrdi Konstitutsiya loyihasini umumxalq muhokamasi uchun e’lon qilishga qaror qildi. Ushbu yig‘ilishda loyihani oxiriga yetkazish va tahrir qilish uchun ishchi guruh tuzildi. Yangi Konstitutsiyaning birinchi loyihasi 1992 yil 26 sentabr kuni tayyor bo‘ldi va shu kuni matbuotda chop etildi.

Loyiha e’lon qilingach, uning umumxalq muhokamasi juda keng tus oldi. Bu ochiq-oshkora muhokamalar 1992 yilning sentabr oyi oxiridan dekabr oyi boshlarigacha fuqarolarning siyosiy faolligi, ijodiy ko‘tarinkiligi ruhida o‘tdi hamda O‘zbekistonda demokratiya rivojining samarali va amaliy maktabi bo‘ldi.

Muhokamada mamlakatimiz katta yoshdagi aholisining deyarli hammasi ishtirok etdi. Matbuotda, radioeshittirish va teleko'rsatuvlarda qizg'in bahs-munozaralar bo'ldi. Ko'plab uchrashuvlar o'tkazildi, Konstitutsiya loyihasiga doir masalalar bo'yicha suhbatlar, anjumanlar tashkil qilindi.

Konstitutsiyaviy komissiyaga fikr-mulohazalar bildirilgan 600 taga yaqin xat kelib tushdi. Respublika matbuotining o'zida Konstitutsiya loyihasiga bag'ishlangan yuzdan ortiq materiallar e'lon qilindi. Fuqarolarimiz bildirgan takliflar soni 5 mingdan oshib ketdi.

Konstitutsiyani yaratish yo'lidagi to'qqizinchı huquqiy qadam – Konstitutsiya loyihasining ikkinchi marta matbuotda umumxalq muhokamasi uchun e'lon qilinishidir.

Konstitutsiya loyihasi o'tkazilgan muokamalar davomida kelib tushgan takliflar asosida ancha tuzatildi va qayta ishlandi. So'ngra, 1992 yil 21 noyabrda umumxalq muhokamasini davom ettirish uchun Konstitutsiya loyihasi ikkinchi marta gazetalarda chop etildi.

Shunday qilib, huquqiy pretsedent – ikki bosqichli umumxalq muhokamasi yuz berdi. Ushbu holat, bir tomonidan, muhokama ishtirokchilarini faollashtirish uchun qudratli rag'bat vazifasini bajargan bo'lsa, ikkinchi tomonidan, Asosiy Qonunimizning xalqchilligini ta'minladi. Konstitutsiya loyihasining o'zi keng jamoatchilik ekspertizasidan o'tdi.

Mazkur aksianing, ya'ni Konstitutsiya loyihasini ikki bosqichda muhokama etish uchun matbuotda e'lon qilinishining ma'nosi shundan iborat ediki, fuqarolar Konstitutsiyaning qayta ishlangan variantida Konstitutsiya loyihasini muhokama qilishdagi o'z ishtiroklarining natijasini ko'ra oldilar.

Konstitutsiya loyihasining yangi variantida umumxalq muhokamasining dastlabki bosqichida kelib tushgan ko'plab fikr-mulohazalar va takliflar o'z ifodasini topdi. Fuqarolarimiz Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan ularning ovozi eshitilganiga, takliflari tegishli ravishda ko'rib chiqilib, inobatga olinganiga ishonch hosil qildilar.

Konstitutsiyani yaratish yo'lidagi o'ninchi huquqiy qadam – Konstitutsiya loyihasining qabul qilinishidir.

Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan 1992 yil 6 dekabrdagi Konstitutsiya loyihasi oxirgi marta muhokama etildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Konstitutsiyaviy komissiya xorijiy konstitutsiyaviy tajribaga murojaat qilib, Asosiy Qonunning rolini yaxlit tushunishdan kelib chiqdi.

Bunda jahon konstitutsiyaviy tajribasinining bir qator ilg'or jihatlari hisobga olindi. Konstitutsiya loyihasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik kengashi kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar va AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya kabi demokratik davlatlar mutaxassislarining sinchkov ekspertizasidan o'tdi.

Ayniqsa, Konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasi O'zbekiston xalqining xohish-irodasini aniqlash hamda juda boy material to'plash imkonini berdi. Ushbu material chuqur va har tomonlama o'rganib chiqildi, umumlashtirildi va xalqning umumiyligi irodasi shaklida o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasi muhokamasiga kiritildi.

Birinchi Prezidentimiz sessiyada Konstitutsiyani "xalqchil qomus" deb atab, uning loyihasi ustida taxminan ikki yil davomida ishlangani, ikki yarim oy mobaynida umumxalq

muhokamasidan o‘tganligi va shu vaqt mobaynida u xalqning fikr xazinasi durdonalari bilan boytilganini, sayqal topganini ta’kidladi.

Oliy Kengash sessiyasiga muhokama qilish uchun kiritilgan Konstitutsiya loyihasiga 80 ga yaqin o‘zgarishlar, qo‘srimchalar taklif etildi va aniqliklar kiritildi.

Parlament deputatlari tomonidan loyiha moddama-modda muhokama qilinib, unga yana bir qator o‘zgartishlar kiritilgach, 1992 yil 8 dekabr kuni Bosh Qomusimiz qabul qilindi. Shu kundan e’tiboran, 8 dekabr – umumxalq bayrami deb e’lon qilindi.

Shunday qilib, O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e’lon qilgan sanadan e’tiboran dunyo sahnida yangi, suveren davlat qaror topgan bo‘lsa, birinchi Konstitutsiyamiz qabul qilingan kuni davlatimiz yangidan tug‘ildi, haqiqiy mustaqilligimizga mustahkam huquqiy poydevor qo‘yildi.

Mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi yangi mustaqil jamiyatning ishonchli huquqiy kafolatlarini shakllantirdi va mustahkamladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir”

O‘zbekiston Konstitutsiyasining g‘oya va normalarida xalqimizning ko‘p asrlik tajriba va ma’naviy qadriyatlari, boy tarixiy-huquqiy merosi aks ettirilgani uning hayotiyligining kafolatidir.

Shu bilan birga, Asosiy Qonunimiz ko‘plab demokratik davlatlarda konstitutsiyaviy qurilish sohasidagi ilg‘or tajribaning eng yaxshi jihatlarini, Inson huquqlari umumjahon deklaratasiyasining umume’tirof etilgan normalari hamda mazkur sohadagi boshqa xalqaro hujjatlarga asoslangan inson huquq va manfaatlari, erkinligini ta’minlash va himoya qilish mexanizmini o‘zida mujassam etgan.

Konstitutsiyaning qabul qilinishi ijtimoiy va davlat qurilishining barcha jabhalaridagi munosabatlarni, milliy qonunchiligidan qabul qilinishining barcha sohalarini tartibga soluvchi aniq huquqiy tizimni tashkil etdi.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimiz parlamenti Konstitutsiya normalariga muvofiq 8 ta konstitutsiyaviy qonun, 15 ta kodeks, 600 dan ziyod qonunni qabul qildi, 200 dan ortiq ko‘p tomonlama xalqaro shartnomani ratifikatsiya qildi va shu tariqa Asosiy Qonunimizni amalga oshirishning yaxlit huquqiy mexanizmi yaratildi. Uning samaradorligini vaqt o‘zi ko‘rsatib turibdi va bu bugun jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilmoqda.

Asosiy Qonunimizga nisbatan bunday yuksak va xolis baholar berilishi bejiz emas. Buni, jumladan quyidagi sabablar bilan izohlash mumkin.

Birinchidan, bizning Konstitutsiya haqiqatan ham demokratik Konstitutsiyadir. Tarixda sinalgan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni, xalqaro andozalarni o‘zida mujassam etgan hujjatdir.

Ikkinchidan, bizning Konstitutsiya eng rivojlangan, taraqqiy topgan davlatlarning tarixiy tajribasiga tayangan holda yaratilgan. Bunda qaysidir davlatning tayyor Konstitutsiyasini ko‘r-ko‘rona ko‘chirib olish yo‘lidan bormay, balki eng ilg‘or xorijiy konstitutsiyaviy tajribalarni o‘rgandik va e’tiborga oldik. Natijada endilikda Bosh Qomusimiz dunyo miqyosida ham har qanday taraqqiy topgan davlat Konstitutsiyasi bilan bemalol kuch sinashmoqda.

Uchinchidan, Konstitutsiyaning g‘oya va normalari o‘zbek xalqining teran tarixiy ildizlariga asoslangan bo‘lib, u ko‘p asrlik tajriba va ma’naviy qadriyatlarni, ulug‘ ajdodlarimizning huquqiy merosini o‘z ichiga olgan.

Hozirgi kunda dunyoda 500 ga yaqin harakatdagi Konstitutsiya bor. Shulardan salkam 200 tasi mustaqil davlatlar Konstitutsiyalari bo‘lsa, 300 tasi federatsiya sub'ektlarining Konstitutsiyalaridir.

Dunyo Konstitutsiyalarini tarixiy nuqtai nazardan uch avlodga bo‘lish mumkin.

Birinchi avlod Konstitutsiyalari – bu guruhga AQSH Konstitutsiyasi va Ikkinci jahon urushiga qadar qabul qilingan boshqa Konstitutsiyalar kiradi.

Ikkinci avlod Konstitutsiyalari – 1946 yildan to 1990 yilgacha qabul qilingan Konstitutsiyalardan iborat.

Uchinchi avlod Konstitutsiyalari – “Berlin devori” timsolida sotsialistik tizim qulaganidan keyin qabul qilingan Konstitutsiyalar.

Dunyodagi barcha Konstitutsiyalar jahon konstitutsiyaviy xaritasini tashkil etadi. Yaponiya Konstitutsiyasi jahon konstitutsiyaviy xaritasida o‘ziga xos va mos o‘ringa ega.

Yaponiya Konstitutsiyasi – Yaponianing tashrif qog’ozidir. Konstitutsiyada Yaponiyaga konstitutsiyaviy ta’rif berilgan.

Avvalo, Yaponiya Konstitutsiyasi o‘z tarixiga ega. Yaponiya tarixida ko‘p sonli konstitutsiyaviy hujjatlar mavjud bshlmagan. 300 yildan ko‘proq davr davomida Yaponiya G‘arb dunyosidan tashqarida, o‘z urf-odatlari va an'analariga muvofiq turmush kechirgan.

Yaponiyada 2 marta Konstitutsiya qabul qilingan. Qolaversa, Yaponiyaga konstitutsiyaviy barqarorlik xos. Buni har ikki Konstitutsiyaga ham bironta o‘zgarish kiritilmagani yaqqol tasdiqlaydi.

Yaponianing birinchi Konstitutsiyasi – 1889 yilgi Meydzi Konstitutsiyasidir. Bu Osiyo qit’asidagi birinchi Konstitutsiya bo‘lib, uning qabul qilinganiga 133 yil to’ldi.

Buyuk Yaponiya imperiyasining birinchi Konstitutsiyasi tarixda Meydzi inqilobi sifatida ma'lum bo‘lgan voqealar tufayli davlat o‘zgarishlari natijasida 1889 yilda qabul qilingan. Unga Prussiyaning 1851 yilgi Konstitutsiyasi va qisman Belgiyaning 1831 yilgi Konstitutsiyasi namuna bo‘lgan.

Yaponianing ikkinchisi Konstitutsiyasi – 1947 yilgi Konstitutsiyadir. U Yaponiya yuristlari tomonidan ishlab chiqilgan mustaqil Konstitutsiya hisoblanadi. Konstitutsiyani ishlab chiqishda AQSH va Yevropa konstitutsiyaviy tajribasiga asoslanilgan. Bu konstitutsiyadanavislik jarayoniga hatto SSSRning 1936 yilgi Konstitutsiyasi ham muayyan ta’sir ko’rsatgan.

Yaponianing amaldagi Konstitutsiyasi 1946 yil 7 oktyabrda ma’qullangan. Konstitutsiya Imperator Syova tomonidan 1946 yil 3 noyabrda imzolangan va 1947 yil 3 mayda amalga kiritilgan. Ushbu davrda, shuningdek konstitutsiyaviy ahamiyatga ega ko‘p sonli qonunlar: Imperator avlodi to‘g’risidagi qonun, Parlament to‘g’risidagi qonun, Vazirlar Mahkamasi to‘g’risidagi qonun, Sud tizimi to‘g’risidagi qonun qabul qilingan.

1946 yilning aprelida urushdan keyingi birinchi parlament saylovleri bo‘lib o’tgan, uning natijasida Parlamentning yangi tarkibi urushdan keyingi birinchi Hukumatni shakllantirdi. Ushbu Parlament 1946 yilning 7 oktyabrida mamlakatning yangi Konstitutsiyasini qabul qildi. Ushbu Konstitutsiyaning matni:

birinchidan, o'zlashtirilgan, chunki u Amerika va Yevropa konstitutsiyaviy huquqi qoidalariiga asoslangan. AQSH Konstitutsiyasining ta'siri huquq va erkinliklarning, ayniqsa individualizm kontseptsiyasiga, konstitutsiyaviy nazorat institutining amal etishi tarkibi va tartibiga asoslangan shaxsiy huquqlarning mustahkamlab qo'yilishida ko'zga tashlanadi;

ikkinchidan, Yaponiya Konstitutsiyasining tarkibiy tuzilishida avvalgi yapon Konstitutsiyasiga nisbatan muayyan izchillikni payqash mumkin. Agar 1889 yilgi Meydzi Konstitutsiysi faqat markaziy hokimiyat organlari tuzilishi va vakolatlarini o'rnatgan bo'lsa, 1947 yilgi Konstitutsiya davlat tuzilishining umumiyligi prinsiplarini e'lon qilgan ko'lamli Muqaddimadan boshlanadi, shuningdek xalq huquqlari va majburiyatlarining kontseptual qadriyatlarini mustahkamlab qo'ygan.

Bunday izchillikka qaramasdan, yangi Konstitutsiyaning qator qoidalari 1889 yilgi Konstitutsiya bilan taqqoslanganda, 1947 yilgi Konstitutsiya quyidagi alohida xususiyatlari bilan farqlanadi.

Birinchi alohida xususiyat. Mamlakatda ko'p asrli an'ana tufayli boshqaruvning monarxiya shakli saqlab qolangan bo'lsa ham Konstitutsiya G'arbiy Yevropa namunasidagi liberal demokratik davlatni barpo etishga da'vat etilgan. 1947 yilgi Yaponiya Konstitutsiyasida yangi demokratik va an'anaviy huquqiy qadriyatlarning sintezi juda muvaffaqiyatli chiqqan.

Ikkinci alohida xususiyat. Konstitutsiya xalq suverenitetini mustahkamlab qo'yi. Bu Yaponiya uchun prinsipial jihatdan yangi qoida bo'ldi. Xalq suvereniteti davlat hokimiyati asosi sifatidagi prinsip avval Yaponiya konstitutsiyaviy tarixida mavjud bo'limgan. Davlat hokimiyatining manbai Imperator emas, balki xalq ekanligi Konstitutsiyaning ko'pgina qoidalariiga, jumladan Imperatorning huquqiy maqomi, shaxsning huquqlari va erkinliklari, davlat mansabdar shaxslarini saylash, Parlament palatalarini shakllantirishga tub jihatdan ta'sir ko'rsatdi.

Uchinchi alohida xususiyat. Imperator hokimiyatining ma'budiy ekanligi prinsipi istisno etildi va u faqat "davlat va millat birligining ramzi"ga aylandi hamda asosan marosim funksiyalarini bajaradigan bo'ldi.

Konstitutsiyada Imperator davlat ishlariga taalluqli vazifalarni bajarish vakolatiga ega emasligi qayd etilgan (3-modda). Imperator avlodining barcha mulki davlat mulki hisoblanadi. Imperator avlodining barcha xarajatlari Parlament tomonidan byudjetning qismi sifatida tasdiqlanadi (88-modda).

Imperatorning maqomi suveren hokimiyat mansub bo'lgan xalqning umumiyligi irodasi bilan aniqlanadi. Konstitutsiyaga muvofiq, taxtni meros qoldirish tartibi 1947 yilgi "Imperator avlodi to'g'risida"gi Qonun asosida belgilanadi. Imperator faqat ushbu Konstitutsiyada ko'zda tutilgan davlat ishlariga taalluqli vazifalarni amalga oshirishi mumkin va davlat hokimiyatini amalga oshirish vakolatlariga ega emas (4-modda). Imperator taxti erkaklar - katta o'g'il tomonidan meros bo'ladi.

Yaponiya Imperatorining nufuzi Angliya Qirolining, ya'ni boshqaruvning parlament shakliga ega monarxiya mamlakati boshlig'inining maqomiga yaqin turadi.

To'rtinchi asosiy xususiyat. Konstitutsiyaning ikkinchi bobu "Urushdan voz kechish" deb nomланади va yagona 9-moddadan iboratdir. Unda qurolli kuchlarni tashkil etish va davlat tomonidan harbiy harakatlarni olib borishdan voz kechish prinsipi shakllantirilgan. Shu sababli

Yaponianing Konstitutsiyasi “Tinchliksevar Konstitutsiya” “Xeyva-kempo” deb ataladi. Konstitutsiya qabul qilinishining tarixiy sharoitlari unda urushdan xalqaro mojarolarni hal etishning vositasi sifatida voz kechish mustahkamlab qo'yilishini belgilagan.

Konstitutsiyada “davlat tomonidan urush olib borish huquqi tan olinmaydi” degan norma qayd etilgan. 9-modda normalarining kelib chiqishi aslo Amerikaga emas, mutlaq Yaponiyaga tegishlidir. Ushbu g'oya birinchi marta Yaponiyadagi okuppatsiya kuchlarining qo'mondoni general Makartur tomonidan emas, balki Yaponianing Bosh vaziri Sidexara tomonidan taklif etilgan. Makartur esa dastlab ana shunday taklifning oqibatlari AQShning Uzoq Sharqdagi manfaatlarini amalga oshirishga xalaqit berishi mumkin deb hisoblagan holda bu masalada ikkilangan.

Konstitutsiyaga 9-moddaning kiritilishi ajablanarli emas. Chunki Yaponiya xalqi atom bombar hujumi dahshatlarini o'z boshidan o'tkazishlariga to'g'ri kelgan. 1945 yilning 6 avgustida atom bombasi Xirosimaga, uch kundan so'ng esa Nagasakiga tashlangan. Ayni paytda tinchliksevarlik printsipi, ya'ni harbiy salohiyatni tiklashdan voz kechish ikkinchi jahon urushi tugagandan so'ng Yaponianing iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlagan (boshqa holatlar bilan birgalikda) omillardan biri ekanligi deb e'tirof etiladi.

Beshinchi alohida xususiyat. Konstitutsiyada huquq va majburiyatlarning sohibi sifatida xalq belgilangan. Xalq insonning asosiy huquqlaridan foydalanishda chegaralanmaydi va u insonning barcha asosiy huquqlaridan moneliksiz foydalanadi (11-modda) hamda ulardan jamiyatning tinch-totuvlik manfaatlarida foydalanish uchun doimiy mas'uldir (12-modda). Shunday qilib, Konstitutsiya asosiy huquqlardan foydalanishning faqat huquqiygina emas, shuningdek ahloqiy jihatlarini mustahkamlab qo'yadi.

Oltinchi alohida xususiyat. Yaponiya Konstitutsiyasi XX asr o'rtalarida qabul qilingan ikkinchi avlod konstitutsiyalarida o'z ifodasini topgan ko'pgina qoidalarga ega. Shu jumladan, bu inson va fuqaroning huquqlari, erkinliklari va majburiyatları to'g'risidagi moddalarga taalluqlidir. Qonun oldidagi tenglik, irqiy yoki milliy mansublik, din, jins, ijtimoiy ahvol va kelib chiqish bo'yicha kamsitishning taqiqlanishi, tabaqa va boshqa imtiyozlardan voz kechish ikkinchi avlod konstitutsiyalariga xosdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, Yaponiya uchun bu qoidalari Imperatorning unvonlar va imtiyozlarni hadya qiluvchi mutlaq hokimiysi hamda asrlar davomida davom etgan tabaqa tengsizligidan voz kechgan Yaponiya uchun jamiyat yangi qadriyatlarining ifodasi sifatida alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Yettinchi alohida xususiyat. Konstitutsiya G'arbda an'anaviy anglanadigan shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy huquq va erkinliklarni mustahkamlab qo'ydi. Konstitutsiya ushbu tegishli moddalarining (13-40-moddalar) tahlili ham tabiiy huquqlarning aniq ta'siri, shuningdek ikkinchi avlod konstitutsiyalarida mavjud bo'lган huquq va erkinliklarning an'anaviy turlari mufassal belgilab qo'yilishidan dalolat beradi.

Sakkizinchi alohida xususiyat. Konstitutsiyaga muvofiq, Yaponiya parlament monarxiyasi hisoblanadi. Davlat hokimiysi to'laligicha Parlament oldida mas'ul Vazirlar Mahkamasi rahbari qo'lidadir. Konstitutsiyaga muvofiq, Imperator Konstitutsiya, qonunlar, hukumat farmonlari va shartnomalariga tuzatishlarni e'lon qiladi, Vakillar palatasini tarqatib yuboradi, umumxalq parlament saylovlarini e'lon qiladi. U, shuningdek qonunga muvofiq,

davlat vazirlari va boshqa mansabdor shaxslarning tayinlanishi va lavozimlaridan ozod qilinishini, shuningdek elchilarning vakolatlari va ishonch yorliqlarini tasdiqlaydi. Imperatorning har qanday ish ko'rishlari mas'uliyat zimmasida bo'lgan Vazirlar Mahkamasining maslahati va ma'qullashi orqali bo'ladi (7-modda).

To'qqizinchi alohida xususiyat. Konstitutsiyada Parlamentning ijroiya hokimiyatdan ustunligi printsipini tan olishdan kelib chiqadigan hokimiyatlar tasdiqlanishi misolida anglasakson modeling ta'siri ko'zga tashlanadi. Yaponianing siyosiy tizimi qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyatlarining taqsimlanishi, shuningdek parlament demokratiyasi printsipiga asoslangan. Hokimiyatning taqsimlanishi prinsipining xalq suvereniteti, fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklarining tan olinishi, shuningdek mahalliy o'zini o'zi boshqarish asoslarining kafolatlanishi Yaponiya konstitutsiyaviy tizimining demokratik asoslarini o'rnatadi.

O'ninchi asosiy xususiyat. Davlat hokimiysi mahalliy organlarining va ular hududida yashaydigan shaxslarning muxtoriyati prinsipi asosida davlat hokimiyatining mahalliy organlariga markaziy organlarning vakolatlaridan, jumladan ma'muriy masalalarga taalluqli vakolatlardan alohida mustaqil vakolatlar taqdim etilgan (92-95-moddalar). Meydzi Konstitutsiyasida mahalliy o'zini o'zi boshqarish normalari mavjud bo'lмаган.

Yaponianing 1947 yilgi Konstitutsiyasi eng barqaror zamонави Konstitutsiya hisoblanadi. Zero, u qabul qilingan 72 yildan beri Konstitutsiyaga hech bir tuzatish kiritilmagan.

Xuddi ana shu holat Yaponianing 1947 yilgi Konstitutsiyasi sifati va barqarorligining yaqqol dalolatidir. Yaponiya Konstitutsiyasining bunday barqarorligi, eng avvalo, babs talab qilmaydigan afzallikkleri: mazmunining mukammalligi, qoidalarning aniqligi va konstitutsiyaviy normalarning mahoratl shakllantirilganligi bilan izohlanadi.

Haqiqatan ham, yapon xalqi Konstitutsiyasining nufuzini juda yuqori baholaydi. Yaponiyada Konstitutsiya u kuchga kirganligining birinchi yili – 1948 yildan boshlab nishonlab kelinadi

Konstitutsyaning 11-moddasida “Xalq insonning barcha asosiy huquqlaridan moneliksiz foydalanadi. Ushbu Konstitutsiya bilan kafolatlanadigan insonning asosiy huquqlari hozirgi va kelajak avlodlarga buzilmas mangu huquqlar sifatida taqdim etiladi. Xalq insonning barcha asosiy huquqlaridan to'siqsiz foydalanadi”, deb qayd etilgan.

Konstitutsyaning 12-moddasida “Ushbu Konstitutsiya bilan kafolatlanadigan erkinliklar va huquqlar xalqning doimiy sa'y-harakatlari bilan qo'llab-quvvatlanib turilishi kerak. Xalq ushbu erkinliklar va huquqlarni har qanday suiiste'mol qilishdan tiyilib turishi kerak va ulardan jamiyatning tinch-totuvlik manfaatlarida foydalanish uchun doimiy mas'uldir” deb ko'rsatilgan.

Konstitutsyaning 13-moddasida esa shunday deyiladi: “Barcha odamlar shaxs sifatida hurmat qilinishi kerak. Ularning yashash, erkinlik va baxt-saodatga erishishga intilish huquqi ijtimoiy barqarorlikni buzmasligi uchun qonunchilik sohasi va boshqa davlat ishlarida g'amxo'rlikning oliy yo'nalishi hisoblanadi”.

Ushbu moddalar inson huquqlari abadul-abad va buzilmas ekanligini, o'z mohiyati bo'yicha insonning bir-biriga zid bo'lgan asosiy huquqlarini tartibga solish mumkinligini

nazarda tutadi. Masalan, boshqa odamlarning sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilish uchun jazolash fikr bildirish erkinligini chegaralashi mumkin.

Biroq u boshqa odamlarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish uchun har qanday holatda zarurdir. Bunday chegaralashlar “jamiyat farovonligi” konsepsiysi doirasida tushuntirilishi mumkin.

Shunday qilib, “jamiyat farovonligi” konsepsiysi doirasida insonning barcha ana shunday huquqlari boshqa odamlar huquqlariga zid kelmasa, ularni chegaralash uchun asos yo'q. Masalan, fikrlash va vijdon erkinligi (19-modda) mutlaq qoida sifatida anglanadi va bu masalada chegaralashlarga yo'l qo'yilmaydi.

“Jamiyat xavfsizligi” nuqtai nazarini hisobga olgan inson huquqlarini chegaralaydigan qonunlar va normativ hujjatlar qoidalarini asoslash imkoniyatiga kelganda, sud ishlari tadbirkorlik faoliyatining erkinligi kabi iqtisodiy erkinliklarni chegaralaydigan qonunlar va normativ hujjatlar qabul qilishda qonunchilik hokimiyatiga ish ko'rishning nisbatan keng erkinligiga yo'l qo'yadi. Boshqa tomondan, fikrlash erkinligini chegaralaydigan qonunlarni talqin etadigan qat'iy mezonlardan foydalaniladi.

Shu munosabat bilan qonunchilik hokimiyatining ish ko'rishlari chegaralanadi. Shunday qilib, “jamiyat farovonligi” konsepsiysi sud ishlari bilan belgilangan va har bir huquq mohiyatiga bog'liqdir, chunki Konstitutsiyada jamiyat farovonligi tushunchasiga aniqlik kiritadigan qoidalar mavjud emas. Davlat tomonidan “jamiyat farovonligi” tushunchasini ixtiyoriy talqin qilish imkoniyati mavjud bo'lmasligi kerak.

10-bob – Konstitutsiyaning milliy huquq tizimida ustunligini o'rnatadi. Bu, jumladan, boshqa hech qanday qonunlar unga zid bo'lmasligini anglatadi. Qonunlar va boshqa davlat hujjatlari kontitutsiyaviy normalarga zid kelsa, “qonuniy kuchga ega bo'lmaydi”.

Konstitutsiyaning 98-moddasi 2-bandida ko'zda tutilgan qoida – “Yaponiya tomonidan imzolangan shartnomalar va o'rnatilgan xalqaro huquqiy normalarga sidqidildan amal etilishi kerak”. Yaponiya tomonidan ratifikatsiya qilingan va e'lon qilingan shartnomalar, shu jumladan inson huquqlari to'g'risidagi shartnomalar ichki davlat huquqining qismi sifatida qonuniy kuchga egadir.

Shartnomalarning qoidalari to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan normalar bo'lishi to'g'risidagi masala tegishli qoidalarning maqsadi, ahamiyati va ta'rifি hisobga olingan har bir aniq holatda hal etilishi lozim.

Har bir davlat o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lini tanlar ekan, xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan eng muhim maqsad va vazifalarini o'zining Konstitutsiyası – Asosiy qonunida mustahkamlab oladi. Binobarin, o'z xalqining xohish-irodasi, dili va tilidagi ezgu niyatlariga hamohang Konstitutsiyaga ega bo'lgan mamlakat o'zi belgilagan yuksak marralardan hech qachon og'ishmasdan, doimo oldinga qarab boradi.

Tarixga nazar solsak, asrlar davomida shakllangan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va insonning tabiiy huquqlari sivilizatsiya jarayonlari natijasida Konstitutsiya shakliga kelganini ko'ramiz.

Konstitutsiya bashariyat hayotida ilk bor insonning ozod va erkin yashash, mulkka ega bo'lish, ta'lim olish, mehnat qilish, saylash va saylanish kabi huquqlarini, so'z hamda e'tiqod erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko'tardi.

Mustaqilligimizning ilk davrida qabul qilingan Konstitutsiyamiz shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda o‘zaro huquq va majburiyatlar hamda ularning kafolatlarini aniq-ravshan belgilab berdi.

Bosh qomusimiz, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, yurtimiz fuqarolari tengligining kafolatlanishini e’tirof etdi va zamonaviy demokratik taraqqiyot uchun zamin yaratdi.

Sohibqiron Amir Temur bobomiz “Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday sultanatning shukuhi, qudrati va tarkibi yo‘qoladi”, deb ta’kidlagan edilar. Shu nuqtayi nazardan, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minalash biz bunyod etayotgan demokratik huquqiy davlatning bosh mezoni hisoblanadi.

Har qanday demokratik islohotlar samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham Konstitutsiya va qonun ustuvorligi ta’minalishi bilan bevosa bog‘liq.

Qonun ustuvorligi – bu davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari chiqarayotgan hujjatlar, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari faqat va faqat Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo‘lishi shart, deganidir.

Shu boisdan ham barcha bo‘g‘indagi kadrlar, u xoh vazir, hokim yoki oddiy fuqaro bo‘lsin, Konstitutsiya va qonunlarni puxta bilishi, ularning ijrosini to‘g‘ri tashkil etishi hamda birinchi navbatda bu qoidalarga butun jamiyat a’zolari qat’iy amal qilishi shart bo‘lgan muhit yaratishimiz zarur.

Shu yilning o‘zida 70 dan ortiq qonun, 350 dan ziyod Prezident farmoni va qarorlari qabul qilindi. Bu qonun hujjatlari kim uchun va nima maqsadda qabul qilinmoqda? Albatta, xalqimiz farovonligi uchun.

Asosiy Qonunimizda, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosa hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etishlari kafolatlangan hamda eng xalqchil va demokratik saylov tizimining asoslari yaratilgan. Mamlakatimizda inson xuquqlariga rioya etilishi ustidan parlament va jamoatchilik nazorati yo‘lga qo‘yilgan. Jamiyat hayotida siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlari va jamoat birlashmalarining jumladan kasaba uyushmalarining mavqeい tabora mustahkamlanmoqda.

Mustaqillik Qomusi nomini olgan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi - respublikamizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mustahkam huquqiy asosi bo‘lib, mamlakatimiz demokratik taraqqiyotini izchillik bilan ta’minlab kelmoqda, shuningdek, yurtimizda demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy tamoyillarini belgilab beradi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasiga asosan, “Xalq davlat xokimiyatining birdan-bir manbaidir. O‘zbekiston Respublikasida davlat xokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergen idoralar tomonidan amalga oshiriladi” deb belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson huquqiga sodiqlik, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishi, fuqarolar tinchligini ta’minalash ustuvor vazifa sifatida belgilanib, uning 13-moddasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi nazarda tutildi. Shuningdek,

Konstitutsiyaning ikkinchi bo‘limi to‘la inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini tartibga solishga bag‘ishlandi.

Islohotlarimizning uzviyligi hamda davomiyligini ta’minlash maqsadida davlatimiz rahbari tomonidan taqdim etilgan Taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshiriladigan eng ustuvor vazifalarning birinchi va ikkinchi yo‘nalishlari ham aynan inson hamda fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilish, qonuniy manfaatlarini ta’minlash borasidagi ishlarimizni faol davom ettirishga hamda adolat va qonun ustuvorligi — xalqchil davlat qurish, inson qadr-qimmatini ta’minlashning eng asosiy va zarur sharti ekanini alohida ta’kidlash o‘rinlidir.

Darhaqiqat, jamiyat va davlatning bugungi kunda erishayotgan yutuqlarida, xususan inson huquqlariga doir qonunchilik tizimini takomillashtirishda hamda kelajak uchun ishlab chiqilayotgan reja va dasturlarning hayotiyligini ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tutgan o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Shu o‘rinda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so‘zlarini keltirib o’tish joizdir: “O‘zbekistonda demokratik islohotlar muqarrar tus oldi va hech kim, hech qanday kuch bizni o‘z tanlagan yo‘limizdan qaytara olmaydi. Bu – bugungi hayot, bugungi zamon talabi. Bu – ko‘p millatli, bag‘rikeng, mehnatkash va oljanob xalqimizning xohish-istagi va biz xalqimizning tub manfaatlari, uning ezgu orzu-intilishlarini ifoda etadigan ana shunday siyosatni jadal davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki uni yangi, yanada yuksak bosqichga ko‘taramiz. El-yurtimiz, jahon hamjamiyati bizga katta ishonch bilan qaramoqda. Ana shu yuksak ishonchga har tomonlama munosib bo‘lib, qat’iyat bilan olg‘a intilib, ko‘zlagan ulug‘ maqsadlarimizga birgalikda albatta yetamiz.”

Darhaqiqat, jamiyat va davlatning bugungi kunda erishayotgan yutuqlarida, xususan inson huquqlariga doir qonunchilik tizimini takomillashtirishda hamda kelajak uchun ishlab chiqilayotgan reja va dasturlarning hayotiyligini ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tutgan o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug’aniyevich Karimov “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” O‘zbekiston NMIU 2016 yil, 432 bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug’aniyevich Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” Ma’naviyat nashriyoti 2008 yil, 176 bet
3. Birinchi Prezidentimiz Islom Krimovning 1991 yil 31 avgustda, o‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida so‘zlagan nutqidan
4. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagي ma’ruzasi 08.12.2019 yil [www.mict.uz](http://www.mict.uz)
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 08.12.1992 yil, [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
6. O‘zbekiston Respublikasi “Mustaqillik deklaratsiyasi” 20.06.1990 yil, [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

7. “O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonuni 336-XII-son 31.08.1991 yil www.lex.uz
8. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonuni 167-I-son, 21.12.1995 yil www.lex.uz
9. Yaponiya Konstitutsiyasi 1947 yil, www.constitutions.uz
10. Amir Temur “Tuzuklar”i www.temurtuzuklari.uz